

HUQUQIY XIZMATLARDA CHATBOTLAR VA AVTOMATLASHTIRILGAN MASLAHAT TIZIMLARI

Abdimurotova Nigina

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17773856>

Annotatsiya: Bugungi davr raqamlashtiruv va avtomatlashtirish tizimlari jamiyat va davlat hayotidagi barcha sohalarida samaradorlik va natijadorlik koeffitsiyentini tubdan o'zgartirib yubordi, shu jumladan yuridik sohani ham. Ushbu maqola huquqiy xizmatlarda chatbotlar va avtomatlashtirilgan maslahat tizimlarining roli va ta'siri tahliliga bag'ishlangan. Maqolada sun'iy intellektga va skriptga asoslangan chatbotlar, ularning yuridik soha vakillari faoliyatiga hamda foydalanuvchilar murojaatlari samaradorligiga ta'siri, avtomatlashtirilgan maslahat tizimlarining afzallik va kamchiliklari, huquq va joriy davrdagi texnologik va raqamlashtiruv jarayoni o'rtasidagi bog'liqlik hamda huquq bu rivojlanish tendensiyasidan ortda qolmoqdami yoki yo'qligi, chatbotlar faoliyatining yurisprudensiya sohasidagi roli va real natijalar va ularning samaradorlik darajasi qanchalik yuqori ekanligi batafsil yoritilgan

Kalit so'zlar: Legal tech, sun'iy intellekt, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, chatbotlar, skript, samaradorlik va natijadorlik koeffitsiyenti, rivojlanish tendensiyasi, yurisprudensiya, advokatlar.

Kirish

So'ngi o'n yillikda texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar insoniyatga ma'lum barcha sohaga kirib keldi. Google Brain asoschilaridan Andrew Ng aytib o'tadi: "Sun'iy intellekt – yangi elektr toki".¹ Elektr tokisiz hayotingizni bir tasavvur qilib ko'ring: chiroq yoqa olmaysiz, telefon va boshqa qurilmalaringizni quvvatlay olmaysiz, ish va o'qishda samaradorlikka yordam beruvchi elektron vositalar yoki asbob-uskunalariz ham toksiz ishlamaydi. Bundan shuni tushunish mumkinki, sun'iy intellekt turli sohalarini: sanoatni, xizmat ko'rsatishni, ishlab chiqarish va boshqalarni tubdan o'zgartirish potensialiga ega. Shunday tarmoqlardan biri yuridik soha bo'lib, ushbu sohada "Kod – bu qonun" ² jumlasini o'z aksini topmoqda. Ya'ni bu termin raqamli texnologiyalar, vizual ravishda kod shaklida ishlovchi tizimlar va smart-kontraktlar huquqiy jarayonlarga kirib borayotganini ifodalaydi. Bularning aksariyati sun'iy intellekt asosiga qurilgani sababli, avvalo, shunga to'xtalsak. Sun'iy intellekt – inson ongiga xos bo'lgan idrok, tafakkur, o'rganish, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilish jarayonlarini kompyuter tizimlari orqali modellashtiruvchi ilmiy yo'nalish hamda texnologiyalar majmuidir. Sun'iy intellekt inson intellektiga xos funksiyalarni, ya'ni bilish, o'rganish, rejalashtirish, muammolarni hal etish va tabiiy til orqali muloqot qilish jarayonlarini amalga oshirish qobiliyatidir.³ Ana endi mana shu sun'iy intellekt yordamida ishlovchi chatbotlarga to'xtalsak. Huquqiy sohada chatbotlar asosan ikki xil ko'rinishda bo'ladi: sun'iy intellektga asoslangan va skriptga asoslangan. Skriptga asoslangan chatbotlar muloqot doirasi cheklangan va unga belgilangan turdagi savollar bilangina murojaat qila olasiz. Sun'iy

¹ Andrew Ng, "AI is the new electricity" ma'ruzasi, Stanford universiteti, 2017-yil
<https://www.gsb.stanford.edu/insights/andrew-ng-why-ai-new-electricity>

² Lawrence Lessig, "Code and Other Laws of Cyberspace" Basic books, 1999
<https://onlinebooks.library.upenn.edu/webbin/book/lookupid?key=olbp33495>

³ McCarthy J., 1956, Dartmouth conference

intellektga asoslangan botlarda yuqoridagi kabi tahliliy funksiyalar amal qilgani sababli unda imkoniyatlar doirasi kengroq. Bunday chatbotlar va avtomatlashtirilgan maslahat tizimlari nafaqat murojaatlarni ko'rib chiqadi, balki uni o'rganish va tahlil qilish orqali eng maqbul yechimlar bilan ham ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish kerakki, maqolaning dolzarbligi – u chatbotlardan foydalanuvchi zamonaviy yuristlar va huquqiy xizmat tizimlari avvalgilaridan qay darajada farq qilishi va samaradorlik tendensiyasi qay tarzda o'zgarganini ko'rsatadi. Legaltech texnologiyalari – chatbotlar va tizimlar huquqqa bo'lgan ta'siri ijobiy yoki salbiyligini ham maqolada yoritiladi. Samarali tahlil va yuristlarning ishini yengil qilish masalalarida vaqt tejamlorligining muhimligini ham unutib bo'lmaydi va bunda yordam ko'rsatuvchi texnologiyalarning o'rnini ham e'tirof etish kerak.

Maqola maqsadi yuridik xizmatlarda chatbotlar va avtomatlashtirilgan maslahat tizimlarining o'rni va ularni amalda qo'llash orqali erishilgan va erishish mumkin bo'lgan natijalarni ko'rib chiqib, tahlil qilishdan iborat. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Chatbot tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari;
- Yuridik maslahat tizimlari va ularning turlari;
- Afzallik va kamchiliklar tahlili;
- Xorijiy tajribalar va real misollar;
- O'zbekistonda bunday tizimlar istiqboli.

Tahlilda ko'rib chiqilgan ma'lumotlar va misollar yuristlar va fuqarolar uchun yuridik xizmatlardan texnologiyalar kombinatsiyasi bilan foydalanishda keng imkoniyatlar bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Bundan tashqari, ushbu sohadagi ilmiy bilimlarni boyitishda rol o'ynaydi.

Usullar (methods)

Maqolani tayyorlashda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Mazmuniy-tahliliy metod

Taqdim etilgan asosiy matnning mazmuni, undagi texnologik va huquqiy tendensiyalar chuqur tahlil qilindi.

2. Manbalarni tizimli guruhlash

- sun'iy intellekt haqidagi nazariy manbalar,
- yuridik texnologiyalar bo'yicha ekspert fikrlari,
- chatbotlar bo'yicha amaliy misollar,
- ma'lumotlar maxfiyligi bo'yicha xalqaro normalar

kabi yo'nalishlarga ajratilib, ilmiy asoslangan tizimli tahlil uchun qo'llandi.

3. Samaradorlik tahlili

SI asosida yuridik maslahat tizimlarining samaradorligi va yurist va fuqarolar uchun qanaqa yordam berayotganini o'rganiladi.

- Maqola ilmiy uslub, obyektiv baholash, analitik yondashuv asosida yozildi.

NATIJALAR (RESULTS)

Tahlil natijasida chatbotlar va boshqa sun'iy intellekt tizimlari yuridik xizmatlarda ahamiyati bo'yicha quyidagi asosiy ma'lumotlar olindi:

Chatbotlarning yuridik xizmatlarga ta'siri

Yuridik maslahat tizimlarining afzallik va kamchiliklari

Jahon miqyosidan real natijalar

O'zbekistonda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar istiqboli

Chatbotlarning yuridik xizmatlarga ta'siri

Raqamli transformatsiya huquq paradigmasini tez va tubdan o'zgartirdi.⁴ Shunday o'zgarishlardan biri huquqiy xizmatlarda paydo bo'lgan chatbotlardir. Xo'sh, chatbot o'zi nima? Chatbot – bu sun'iy intellekt yoki dasturlashtirilgan algoritmlar yordamida foydalanuvchi bilan muloqot qiladigan kompyuter dasturidir. Ular foydalanuvchilar bergan savollarga javob berishadi, ma'lumotlar taqdim qilib, yordam ko'rsatishadi.⁵ Ya'ni siz chatbotlar yoki avtomatlashtirilgan maslahat tizimlaridan istalgan vaqtda o'zingizni qiziqtirgan yoki o'ylantirayotgan savollarga javob olishingiz mumkin.

Nega yuqoridagi kabi tizimlar avtomatlashtirilgan deyiladi? Chunki ularning faoliyati uchun inson omili kerak emas. Ya'ni, agar siz advokat bo'lsangiz o'z ishingizni bajaraverasiz, chatbot esa o'rningizga murojaat etuvchilarning savollariga javob beradi va bunda unga sizning yordamingiz kerak bo'lmaydi. Bu juda samarali yo'lga qo'yilgan tizim. Legal Mosaic asoschisi, huquqiy innovatsiyalar mutaxassisi Mark Cohen aytishicha: “Huquqiy avtomatlashtirish advokatlarning o'rnini egallash haqida emas, balki ularga yuqori qiymatli ishlarni bajarish imkonini berish haqida.”⁶ Chatbotlar oddiy va takrorlanuvchi vazifalarni o'z zimmasiga olib, advokatlarga muhimroq va murakkab masalalarga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Yuridik maslahat tizimlarining afzallik va kamchiliklari

GlobalData o'z maqolalaridan birida yozadi: “Yuridik texnologiyalar maqsadi – muhim, lekin past qiymatli yoki ko'p takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish orqali advokatlarga murakkab va yuqori malakali ishga e'tibor qaratishga imkon yaratishdir.”⁷ Advokatlarning o'zlari maslahat berish yoki oddiy savollarga javob qilishlari ham mumkin. Lekin hozirgi zamonda tezlik va samaradorlik muhim, bunga texnologiyalar orqali oson erishish mumkin ekan nega uni qo'llashdan bosh tortishimiz kerak? Sun'iy intellekt advokatlarning o'rnini egallamaydi, lekin sun'iy intellektdan foydalangan advokatlar undan foydalanmaydiganlarni o'rnini egallaydi.⁸ Zamon o'zgarar ekan hamma sohada rivojlanishlarga guvoh bo'lamiz. Huquq sohasida ham xuddi shunday. Sun'iy intellekt yoki texnologiyalar biz qilayotgan ishlarga taqlid qila oladi degani, bizning ishimizni yo'q qiladi degani emas. Mashina bizga qarshi deb emas, u bilan qanday ishlash mumkin – shunga e'tibor qaratishimiz kerak.⁹ Insonlar o'rtasida keng

⁴ Cohen, M.A., & DeStefano, M. 2020. Legal Transformation Briefing (December 2020) Digital Legal Exchange <https://www.legalevolution.org/wp-content/uploads/sites/262/2021/12/Legal-Transformation-Briefing-December-2020.pdf>

⁵ Video what is chatbot

https://youtu.be/o9-ObGgfpEk?si=QE7XrypjlBw_qRWM

⁶ Cohen, M. A. (2016, September 6). Artificial Intelligence and the Delivery of Legal Services. Forbes <https://www.forbes.com/sites/markcohen1/2016/09/06/artificial-intelligence-and-legal-delivery/>

⁷ “Legaltech will augment lawyers' capabilities but not replace them.” — GlobalData, 21 Oct 2024. <https://www.globaldata.com/store/report/legaltech-theme-analysis/>

⁸ Andrew Arruda, “Artificial intelligence and the Legal Profession” (2017) intervyusi, Northwestern Pritzker School of Law yangililari bo'limi <https://news.law.northwestern.edu/news/andrew-arruda-ceo-of-ross-intelligence-discusses-ai-in-the-legal-profession/>

⁹ Andrew Arruda, “Artificial intelligence and the Legal Profession” (2017) intervyusi, Northwestern Pritzker School of Law <https://news.law.northwestern.edu/news/andrew-arruda-ceo-of-ross-intelligence-discusses-ai-in-the-legal-profession/>

tarqalgan “ texnologiyalar insonlarga qarshi”, “ sun’iy intellect odamlarni o’rnini egallaydi” kabi stereotiplarni muhokama qilish o’rniga ular bilan qanday rivojlanishni o’ylashimiz kerak. Yirik huquq firmalaridan biri bo’lgan Addleshaw Goddard ning Innovatsiyalar va Legaltech bo’limi rahbari Kerry Westland navel-gazingni qoralaydi. Navel-gazing inglizlardagi mashhur ibora bo’lib, odam yoki tashkilot faqat o’zini o’ylab, tashqi o’zgarishlarga e’tibor bermasligi, harakat qilish o’rniga ichki mulohazaga berilib qolishidir. Westland shunday deydi: “ Biz uzoq vaqt o’zimizni kuzatib, o’rganib o’tirishimiz mumkin, lekin bunday qilishga vaqt yo’q – harakat qilishimiz kerak”. ¹⁰ O’zgarish va rivojlanishlarsiz insoniyat kelajakka yo’l topa olmaydi. Kelajakning tarixdan farqi ham shunda – u rivojlanib oldinga qarab harakatlanadi, tarix esa ortda qolaveradi, u bilan yashovchilar ham.

Kamchiliklarga e’tibor qaratilsa quyidagilarni ko’rib chiqish kerak:

- Chatbotlar jismoniy yoki yuridik shaxslar emas, ular advokat emas, shuning uchun ham bergan maslahatlari noto’g’ri bo’lsa ham javobgar bolmaydi. Bu esa o’z navbatida huquqiy xatolarga olib kelishi mumkin.
- Qonunlar tez-tez o’zgarishi hisobga olinsa, chatbotlar bazasi yangilanmagan taqdirda xatô ma’lumotlar taqdim etish ehtimoli mavjud.
- Hozirda eng dolzarb mavzuga aylanayotgan shaxsga doir ma’lumotlar masalasida yuridik xizmatlarga qilinadigan murojaatlar aksariyat hollarda shaxsiy va maxfiy bo’lishi bilan bo’g’liqligini hisobga olgan holda ularning daxlsizligini saqlash lozim. Biroq avtomatik yoki kompyuter tizimlarida ma’lumotlar sizib chiqish holatlari ham uchrab turadi.

Deyarli barcha chatbot va yuridik xizmat tizimlari shaxsiy ma’lumot talab qiladi. Bu esa o’z navbatida odamlar orasida ularga nisbatan ishonchsizlik tug’diradi. Ayniqsa huquqiy sohada insonlarga tegishli eng “nozik” ma’lumotlar: ID, uy manzili, pochta manzili, telefon raqamlari, moliyaviy ma’lumotlar (bank hisoblari, kredit shartnomalari, qarzdorlik va aliment haqidagi ma’lumotlar) dan foydalaniladi. Bu ma’lumotlar kiber hujumga uchrasa yoki chatbotlarni ishlatuvchi kompaniya tomonidan ularning daxlsizligi buzilsa, u holda insonlar katta ehtimol bilan moliyaviy va manaviy zarar ko’rishlari mumkin. Yaqinda Niderlandiya ma’lumotlarni himoya qilish agentligi – Dutch DPA fuqarolardan bir qator shikoyatli holatlarni qabul qildi. Ularga ko’ra insonlar shaxsiy ma’lumotlarini sun’iy intellekt asosida tuzilgan chatbotlarga yuborishgach ma’lumotlar sizib chiqishi, ya’ni chatbotlardan tashqariga tarqalish holatlari ro’y bergan. ¹¹ Bu kabi holatlar uncha ko’p emas, biroq xavfi katta, negaki shaxsiy hayot daxlsizligi – insonning asosiy huquqlaridan biri. ¹² Ma’lumotlar – axborot asrining ifloslanish muammosi, maxfiylikni himoya qilish esa ekologik muammo kabi dolzarbdir.¹³ Ifloslangan

¹⁰ Kerry Westland, «Generative AI has turned legal tech adoption “on its head”», Legal Futures, 14 December 2023.

<https://www.legalfutures.co.uk/latest-news/generative-ai-has-turned-legal-tech-adoption-on-its-head>

¹¹ Autoriteit Persoonsgegevens (Dutch Data Protection Authority), “Caution: use of AI chatbot may lead to data breaches”, 2023

<https://autoriteitpersoonsgegevens.nl/en/current/caution-use-of-ai-chatbot-may-lead-to-data-breaches>

¹² European Court of Human Rights, Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms (ECHR), Article 8.

https://www.echr.coe.int/documents/convention_eng.pdf

¹³ Tim Cook, Keynote address at the Computers, Privacy & Data Protection (CPDP) conference, Brussels, January 28 2021.

<https://www.computerworld.com/article/1706458/complete-transcript-video-of-apple-ceo-tim-cooks-eu-privacy-speech.html>

muhitda yasholmaganimiz kabi, maxfiyliksiz olamda ham huddi shu holat yuz beradi. Shuning uchun ham shuni aytib o'tmoqchiman, ma'lumotlar daxlsizligi bu havo kabidir – inson sifatida usiz bir lahza ham yashay olmaganimizdek, shaxs sifatidagi ham maxfiyliksiz shaxs bo'la olmaymiz.

Jahon miqyosidan real natijalar

Chatbot va avtomatlashtirilgan huquqiy maslahat tizimlarining yana bir afzalligi ular aksariyat hollarda bepul bo'ladi. Bu o'z navbatida insonlar advokatlarga beriladigan mablag'ni tejashga yordam beradi. Barchamizga ma'lumki yuridik xizmatlar arzonga tushmaydi. Masalan, AQSH da ko'plab umumiy yuridik xizmatlar uchun soatbay to'lov odatdan 180 AQSH dollaridan 650 AQSH dollargacha bo'lishi mumkin.¹⁴ Bundan tashqari ularga ketadigan vaqt va ish jarayonining murakkabligini (yuridik xizmatlar odatda ko'p hujjat va qog'ozli ishlar talab qilganligi uchun oddiy aholiga qiyinchiliklar tug'diradi) unutmashimiz kerak. Yuridik texnologiyalar bo'yicha ekspertlar ta'kidlashganidek “ Yuridik xizmatlarning kelajagi – bu avtomatlashtirish. Biz vaqtni sotishdan qiymat yaratishga o'tishimiz kerak”.¹⁵ Umuman olganda, maksimal darajada vaqtni tejab, minimal harajatlar evaziga samarali ish natijasi olishni kim ham hohlamaydi deysiz. Bu nafaqat foydalanuvchilar, balki huquqshunoslar uchun ham yuqori koeffitsientli qulaylik manbai bo'lib, ularning ish jarayonini tezlashtiradi va o'z imkoniyatlarini eng yuqori darajada ishga solish imkonini beradi. Real misollarga qaraydigan bo'lsak, Thomson Reuters Legal kompaniyasi rasmiy tahliliy maqolasida 2023-yilda avtomatlashtirish tizimi yordamida advokatlari va yuridik firmalar avvallari bir necha soat va hatto kunlar talab qilgan ishlarni bir necha daqiqada amalga oshirishgan. Shu sababli ular o'z hisobotida 82 foizgacha vaqt tejatishini qayd etgan.¹⁶ Ahamiyat bergan bo'lsangiz, barcha mashhur va nomdor firmalar, samarador natijalari bilan mijozlarni o'ziga tortayotgan yuridik kompaniyalar va huquq sohasi vakillari o'z ishlarini avtomatlashtirilgan texnologiyalar va sun'iy intellekt bilan kombinatsiyalashtirgan holda olib bormoqdalar. Yana bir mashhur botni olaylik – DoNotPay. Bu bot Joshua Browder tomonidan yaratilgan bo'lib, birinchi huquqiy chatbot hisoblanadi. “ Men ushbu chatbotni talaba bo'lgan paytim yaratganman. Men doim noto'g'ri yozilgan avtoturargoh jarimalarini olayotgan edim, lekin ularni bekor qilish jarayoni juda murakkab edi. Shunda men foydalanuvchiga avtomatik tarzda shikoyat arizasini tayyorlab beradigan chatbot tuzdim. Bugun DoNotPay AQSh va boshqa davlatlarda 100 dan ortiq yuridik muammolarda odamlarga bepul yordam bermoqda — bu adolatni hammaga ochish uchun yaratilgan vosita. Chatbotlar advokatlarni almashtirmaydi — ular odamlarga o'z huquqlarini himoya qilishda yordam beradi, advokatlarga esa murakkab ishlar bilan shug'ullanish imkonini beradi”.¹⁷ Joshuadan chatbotlarning foydasi haqida so'ralganda u o'zi tuzgan chatbotni misol qilib: “ Maqsadim – qonunni hammaga bepul qilish edi. Chatbotlar qimmat advokatlarni qiladigan ishlarni bajaradi: huquqlarni tushuntiradi, hujjatlarni tayyorlaydi va eng muhimi ularning barchasini bepul qilib, odamlarda pulni tejaydi.”¹⁸ Yuqorida ta'kidlangan gaplar o'z isbotini

¹⁴ <https://www.clio.com/resources/legal-trends/2023-report/read-online/>

¹⁵ Richard Susskindning “Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future” (2-nashr, 2017) <https://global.oup.com/academic/product/tomorrows-lawyers-9780192864727>

¹⁶ thompson

¹⁷ <https://conferences.law.stanford.edu/futurelaw2017/speakers/joshua-browder/>

¹⁸ Thomson Reuters Legal Insights, “Save time with document automation (Document Automation Saves Time)”, 2023. <https://legal.thomsonreuters.com/en/insights/articles/document-automation-saves-time>

topmoqda, ya'ni bir kunda minglab insonlar chatbotlar va avtomatlashtirilgan yuridik xizmatlar tizimidan foydalanib vaqt, harajat va harakatni tejamoqdalar.

O'zbekistonda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar istiqboli

Hozirda O'zbekiston aholisining yuridik murojaatlariga huquqiy yechim maslahatlar beruvchi eng samarali chatbotlardan biri Toshkent davlat yuridik universiteti Yuridik klinikasi tomonidan tuzilgan @TDYU_Yuridik_klinika_bot dir. Ushbu botga savol yo'llaysiz, masalan, "Ishsiz bo'lsam aliment to'laymanmi?" tarzida va bot sizga O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimiga muvofiq huquqiy javob beradi. Bundan tashqari ko'pgina davlat muassasalari va tashkilotlarining o'z chatbotlari bor. Masalan, Adliya vazirligining o'z botlari mavjud. Nafaqat vazirlilar va tashkilotlar, balki oliy ta'lim muassasalarida ham chatbotlar tizimi mavjud. Misol o'rnida Toshkent davlat yuridik universitetining chatboti orqali talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishlari, davomat va kunlik ballar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda ham chatbotlar va avtomatlashtirilgan maslahat tizimlari faoliyat olib borishlari mumkin. Biroq buning uchun aholining savodxonlik darajasini oshirish, ularning ftehnologiya va yuridik sohalaridagi bilimlarini oshirishga qaratilgan dasturlarni taqdim etosh va samarali amalga oshirish kerak. bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi 358-sonli qarorini sun'iy intellektga bo'lgan e'tiborning ortishi deya ko'rishimiz mumkin.¹⁹ Bunga qo'shimcha qilib "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi qononni ham ilova qilish mumkin.²⁰

Muhokama

Sun'iy intellekt so'nggi yillarda yuridik sohada sezilarli darajada o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Advokatlar, sud organlari, notariuslar, mijozlar va davlat xizmatlari SI texnologiyalaridan foydalangan holda tezroq, aniqroq va samaraliroq faoliyat yuritmoqda. Chatbotlar va avtomatlashtirilgan maslahat tizimlari esa ushbu jarayonning eng amaliy ko'rinishlaridan biridir.

Yuqoridagi tahlil natijasida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Huquqiy xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytiradi

Ko'plab fuqarolar advokatga murojaat qila olmaydi yoki huquqiy savollariga tezkor javob topolmaydi. Chatbotlar esa:

- 24/7 ishlaydi
- Arzon yoki bepul xizmat ko'rsatadi
- Oddiy yuridik savollarga darhol javob beradi

Bu huquqiy ongni oshiradi va aholining katta qatlamini yuridik yordam bilan qamrab oladi.

2. Huquqiy jarayonlarni tezlashtiradi

SI asosidagi tizimlar:

- Hujjatlarni avtomatik tekshiradi
- Shartnomalarni tahlil qiladi
- Ma'lumotlarni tartiblaydi
- Sud hujjatlarini tayyorlashda yordam beradi

Natijada advokat yoki yuristning kundalik ish yukini kamaytiradi va vaqtini tejaydi.

¹⁹ Lex.uz <https://lex.uz/uz/docs/-7158604>

²⁰ Lex.uz <https://lex.uz/docs/3375859>

Xulosa

Hozir hayotimizning har bir sohasi huquq bilan bog'liq, hatto yashashimizning ham asosi unda mustahkamlangan. Shunday ekan ishlarimizni yengillashtiruvchi texnologiyalar har tomonlama qulay. To'g'ri, hali ular butun dunyo yurisdiksiyalarida to'liq takomillashmadi, ammo kun sayin ularning ulushi o'sib bormoqda.

Texnologiya – huquqning dushmani emas, balki hamkori. Yuridik chatbotlar adolatni o'stiradi, jarayonni samarali qiladi. Ammo biz halollik, aniqlik va etik masalalarda ehtiyot bo'lishimiz kerak. Bizning maqsadimiz – texnologiya va huquq insoniyat manfaatiga birgalikda xizmat qiladigan kelajakni yaratish.²¹ Kelajak bilan yashashni hohlar ekanmiz, “insonga qarshi texnologiya”, “sun'iy intellekt odamzodga qarshi” kabi tushunchalar o'rniga “inson va avtomat”, “odam va texnologiya sherikchiligi” kabi g'oyalarni qabul qilaylik. Buni, avvalo, eng katta soha – huquqdan boshlaylik. Zero, texnologiya huquqdagi buyuk tenglashtiruvchi vosita – u ilgari yuridik yordam ololmagan odamlarga adolatga yo'l ochadi.²² O'zingizni bu o'zgarishlarga moslashtirib boring. Chunki huquqning kelajaki yuristlarda emas, texnologiya yuridik xizmatlarni qanday o'zgartirishida.²³

Texnologiyani qabul qilmaydigan yuridik firmalar orqada qolish xavfi bilan yuzlashadi; raqamli va sun'iy intellekt vositalarini joriy qilgan firmalar samaradorlikni oshiradi, yuqori qiymat yaratadi va huquqiy bozorning raqobatbardosh o'rnini mustahkamlaydi..²⁴ Shunday ekan, nafaqat odamlar, balki yuridik firmalar va umuman olganda butun huquq tizimi rivojlanishga qarshi harakatlanmasdan, u bilan bir oqimda ketishi kerak. Negaki, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar rivojlanish yo'lidagi asosiy omillarga aylanuvchi bo'lishi mumkin.²⁵

²¹ Joshua Browder, Future Law 2017, Stanford University, keynote speech on legal technology and access to justice, 2017.

<https://conferences.law.stanford.edu/futurelaw2017/speakers/joshua-browder/>

²² <https://www.llrx.com/2024/05/a-chat-with-legal-rebel-richard-granat/>

²³ Susskind, Richard. Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future. 2-chi nashr, Oxford University Press, 2017. 240 b.

²⁴ American Bar Association, “What To Do When Your Law Firm Won't Embrace Technology”, 2022, https://www.americanbar.org/groups/law_practice/resources/law-technology-today/2022/what-to-do-when-your-law-firm-wont-embrace-technology/?utm_source=chatgpt.com

²⁵ American Bar Association (2025, March) AI for legal documents review: a game-change for lawyers. Law practice magazine https://www.americanbar.org/groups/law_practice/resources/law-technology-today/2025/how-ai-enhances-legal-document-review/